

PAXTANING SIFATINI NAZORAT QILISH

Xidirova Durdona Olim qizi¹

Abdushukurova Ma'mura Abdulla qizi²

To'xtasinov Erkinjon Komiljon o'g'li³

Abduraimova Farog'at Qahramon qizi

¹⁻²⁻³⁻⁴Guliston Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6675159>

Annotatsiya: Paxtani qabul qilish, uning sifatini aniqlash uchun namunalar olish va tortish paxta topshirish huquqiga yozma ishonchnomasi bo'lgan xo'jalik topshiruvchisi ishtirokida bajariladi, ushbu maqola paxtaning sifatini nazorat qilish haqida

Kalit so'zlar: Namuna, nuqtali namuna, birlashgan namuna, o'rtacha kunlik namuna, ifloslanganlik

Tayyorlav punktida paxtani qabul qilishda qabul qilinadigan maxsulotning sifatini nazorat qilish muhim o'rin tutadi. Uning aniqligiga nafaqat paxta zavodining daromadi, balki g'aramning to'g'ri jamlanishiga ham bo'g'liq bo'lib, paxtaning ishonchli saqlanishini ta'minlaydi. Namunalar tanlash paxta sifatini nazorat etishning dastlabki va eng mas'ul jarayoni hisoblanadi. Paxta tayyorlav punktida respublika standarti 643-95 “Paxta. Namunani tanlash usullari” bo'yicha olib boriladi. Shuningdek, namunani tanlashga paxtani tushirish joylariga xam ruxsat etiladi. Namuna tanlash uchun odatda, doimiy usti yopiq ayvon jihozlanib, unda paxta namligi va iflosliginin aniqlash uchun paxta namunalari solingan bankalarni quyosh nuri, chang va yog'ingarchilikdan saqlaydigan joyda tanlanadi. Paxtaning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash uchun keltirilgan paxta to'dasining turli joylaridagi istalgan nuqtalaridan olingan namuna turkumi tuziladi.

To'da deganda bitta seleksion sanoat navidan olingan sifati bo'yicha bir xil bo'lgan bitta transport nakladnoyi bilan rasmiylashtirilgan paxta miqdori tushuniladi. Har bir keltirilgan to'da nuqtalaridan namunalarni tayyorlov punktining klassifikatori paxta topshiruvchi ishtirokida paxta tortilguncha qo'lda tanlab oladi. Nuqtalardan namuna tanlashga paxta topshirilgan joylarda ham ruxsat etiladi. Keltirilgan paxta to'dasining har ikki tonnasidan turli chuqurlikdagi kamida uch joydan har biri 100-150 g miqdorida namuna tanlab olinadi.

Paxtaning iflosligi va namligi tayyorlov punkti laboratoriyasida har bir xo'jalik (bo'linma yoki brigada) bo'yicha o'rtacha kunlik namunalarga qarab jamlangan to'dalar doirasida aniqlanadi. O'rtacha kunlik namuna bir kunda keltirilgan paxtadan yig'ilgan namunalar to'plamidan iborat. U quyidagicha tuziladi. Nuqtalardan olingan

paxta namunalari namligi va iflosligini asboblar yordamida tekshirish uchun bitta kichik (bir kilogrammli) qopqog`I zich yopiladigan bankaga solinadi. Uning yorlig`ida topshiruvchi xo`jalikning nakladnoy nomeri, to`da nomeri, terim turlari, paxta navi ko`rsatiladi. Keyin kichik banklarga yig`ilgan nuqtalardan olingan paxta namunalari 6-8 kg sig`adigan katta bankalarga joylanadi (kata bankaning taxminiy xajmi balandligi 0,7 m, diametri 0,4 m). Katta bankaga xo`jalik , bo`linma brigadalar, paxtaning seleksion va sanoat navi, terim turi va jamlanadigan to`da nomeri ko`rsatilgan yorliq yopishtiriladi.

Yorliqdagi yozuv namunasi:

9-to`da.p

Ibn Sino nomidagi jamoa xo`jaligi:

<<108-F>>;

I nav;

2-sinf;

25/12.

Katta bankalar laboratoriyada yoki bo`linma isitish asboblarida uzoq, maxsus joyda saqlanish kerak. Sig`imi kamida 3-4 kg bo`lgan o`rtacha kunlik namuna butun qabul qilish kuni mobaynida to`planadi va undan kuniga bir bor namligi hamda iflosligi bo`yicha laboratoriya tahlili o`tkaziladi. Tahlillar har bir xo`jalik, bo`linma, brigade bo`yicha jamlanadigan to`dalar, ya`ni terim turlari, seleksion va boshqa belgilar bo`yicha olib boriladi.

Qabul qilingan paxtani iflosligi va namligi bo`yicha taxlil qilishdan oldin har bir katta bankadan kichigiga 400-500 g. dan namuna olinib, uni bir sutka davomida namlikni nazorat tekshiruvchi uchun saqlanadi. Namunani sutka davomida saqlash vaqti namunaning nazorat qilinadigan qismi kichik kichik banka (namlikni aniqlash uchun) va qop yoki bankaga (ifloslikni aniqlash uchun) joylangan paytdan hisoblanadi. Namlik va ifloslikning kunlik tahlillaridan keyingi namuna qoldig`ini sifat hamda iflosligini nazorat tekshiruvchi uchun qoldiriladi va qog`oz qoplarda saqlanadi. Namunali kichik bankani imzolab, sana, xo`jalik, brigada, seleksion va sanoat navlari, jamlanadigan to`dalar ko`rsatilgan yorliq yopishtirib qo`yiladi. Bir sutkadan keyin nazorat namunalari tegishli to`dalarga qo`shiladi.

Qabul qilingan paxtaning navi, namligi va ifloslanganligini aniqlash uchun namunalar tanlash va tahlillar 643-95, 592-92, 593-92, 644-95 (1, 2, 3, 4) raqamli respublika standartlari bo`yicha standart namunalarda tekshirilgan yoki <<O`zDavStandart>> ning metrologik xizmati attestatsiyasidan o`tkazilgan asboblarda olib boriladi. Namunalar tanlash, laborantlar ishi, laboratoriya asbob-uskunalarini paxta zavodining TNB boshlig`i nazorat qiladi.

Tayyorlov punktining laboratoriyasi quyidagi asboblarga ega bo`lishi kerak: O`z-7 m shkafi, USX-1 va VXS yoki VXS-M1 namlikni aniqlash asbobi, paxta

ifloslanganligini aniqlash uchun LKM qurilmasi, LPS-4 tola navini aniqlash asbobi, PPV jin tola tozalagich, paxta uchun CXL-3 laboratoriya quritgichi, mayda qadoq toshli texnik tarozilar, mikroskop, mikroskopga P-2 nurni qutblantiruvchi moslama eksikator, namunalar olish uchun bankalar (katta va kichik), LPS-4 asbobida nazorat tekshiruvlarining ruxsat etiladigan farqlari paxta tolasiga bo'yicha 2,5 foizdan oshmasligi kerak. Agar bu ajrimlar orasidagi farqlar ruxsat etiladigan miqdordan oshib ketsa, unda ikkita qo'shimcha namuna LPS-4 da o'lchanadi va o'lchov natijalari bo'yicha o'rtacha qiymat hisoblanadi.

Ikkita namuna tahlilining natijalari orasidagi farq, ifloslikni nazorat taxlilida ifloslanganlik 10% gacha bo'lganda- 0,6% (mut.)dan oshmasligi, 10 % dan yuqori bo'lgan esa 1,0%(mut.)dan oshmasligi kerak. Ikki namunani sinash natijalari orasidagi farqlar taxlillarida paxta namligi 10,0% bo'lganda 0,5%dan oshmasligi va namligi 10% dan ko'proq bo'lganda 5,0%(nisb.) dan oshmasligi lozim. Agar dastlabki va nazorat taxlillarining natijalari orasidagi farqlar yuqorida ko'rsatilgan chegaralardan chiqmasa, unda dastlabki to'g'ri hisoblanadi.

Namunalar tanlash to'g'riligini tekshirish, klassifikatorlar va laboratoriya tomonidan qabul qilinadigan paxtaning navi, ifloslanishi hamda namligini aniqlash uchun har kunlik laboratoriya taxlillari belgilanadi. Shu maqsadda qabul qilishdan keying kun tayyorlav punktida jamlanayotgan har bir to'dadan klassifikator ishtirokida bir kunda qabul qilingan paxtadan birlashgan paxta namunalari tanlanadi. Unga paxtaning seleksion va sanoat navlari, terim turi, namuna olingan to'da yoki g'aram nomeri ko'rsatilgan yorliq tirkaladi. Shundan so'ng mazkur namunalar bo'yicha laboratoriyada paxtaning namligi, iflosligi va navi asboblari yordamida aniqlanadi. Taxlil natijalari klassifikator uchun majburiydir. Ular bo'yicha klassifikator paxtani to'g'ri qabul qilish va jamlashni ta'minlash yuzasidan choralar paxtani to'g'ri qabul qilish va jamlashni ta'minlash choralar ko'rishi shart. To'dani jamlash ma'lumotlari bo'yicha iflosligi va namligi ko'rsatgichlari, qabul qilishdagi ma'lumotlarga to'g'ri kelishi kerak yoki yuqorida ko'rsatilgan ruxsat etiladigan chegaralarda og'ishlarga ega bo'lishi mumkin.

Tayyorlov punktida qabul qilingan paxtaning sifatini baholash maqsadida har bir jamlangan paxta to'g'risidagi respublika standarti “Paxta. Namuna tanlash usullari”(1) bo'yicha o'rta namuna tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Paxtani dastlabki qayta ishlash bo'yicha ma'lumotnoma. 1-jild, T., “Mehnat”, 1994.
2. Paxtani qayta ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi (PDKI 02-97). T., “Mehnat”, 1997.